

Nargiza K. SHOALIYEVA,
Associate Professor of Al-Azhar Department for
Arabic Language and Literature,
International Islamic Academy of Uzbekistan
A.Qadiri str. 11, 100011, Tashkent, Uzbekistan
E-mail: nshoaliyeva74@mail.ru
ORCID: 0000-0002-7314-0093

DOI: 10.47980/MOTURIDIY/2024-4/3

JALOLIDDIN RUMIY IRFONIDA ISHQ VA AYOL O'RNI

THE ROLE OF LOVE AND WOMAN IN THE GNOSIS OF JALALIDDIN RUMI

РОЛЬ ЛЮБВИ И ЖЕНЩИНЫ В ГНОЗИСЕ ДЖАЛАЛИДДИНА РУМИ

KIRISH

Milodiy XI-XIII asrlar fors adabiyotining eng ko'zga ko'ringan mavzularidan biri irfon yoki tasavvufiy adabiyot bo'lsa, bu turdagi adabiyotning eng mashhur namoyandasi Mavlono Jaloliddin Muhammad Balxiy Mavlaviy Rumiy (1207-1273) va uning bezavol asari «Masnaviyi ma'naviy» hisoblanadi. Bu asar asrlar davomida ilm ahli dunyosiga ma'ruf bo'lib, bugungi kungacha ham o'z qiymatini yo'qotmagan. Garchi birinchi marta «Masnaviy ma'naviy»ning tanqidiy matni, taniqli ingliz olimi Nikolson tomonidan nashr etilgan bo'lsa-da, bugunga qadar ko'plab tadqiqotchilar, izlanuvchilar va tarjimonlar uning o'lmas asarlarini bir necha tillarga tarjima qilib, o'zlarining ma'naviy mulkiga aylantirib bo'lgan. O'zbekistonda ham Rumiy va uning asarlariga katta e'tibor qaratilgan.

Rumiyning islom tafakkuri va san'ati sohasida tutgan o'rni kattaligi va o'ziga xos dunyoqarashining ahamiyati tufayli uning tafakkurida ayollar o'rnini tahlil qilish masala sifatida qaraladi. Bunday nufuzli va tariqat asoschisi bo'lgan shaxs, insoniyat tarixida kamdan-kam uchraydi. Mavlono ustoz va donishmandlik maqomi uning shoirlik mavqeidan ustun bo'lib, aslida Mavlono birinchi navbatda mutafakkir, ikkinchidan esa shoiridir.

ASOSIY QISM

Ma'lumki, Nikolson 15 yil davomida (1925-yildan 1940-yilgacha) bu asarni tarjima qilish va talqin qilish bilan shug'ullandi. Bugungi

kunda Nikolson tomonidan nashr etilgan matn «Masnaviy»ning asl nusxalaridan biri hisoblanadi. Eronlik olim Badiuzzamon Furuzonfar «Masnaviy ma'naviy»da kelgan hadislarini to'plab, manbalarini ko'rsatgan. Shundan so'ng u «Masnaviy» qissa va tashbehlarining manbalarini aniqlashga kirishib, arab va fors tillaridagi ko'plab manbalarni topa oldi. Abul Husayn Zarrinkub ikki jildlik «Sari nay»ni «Masnaviy»ning tahliliy tadqiqi asosida yozgan. U bu asarida «Masnaviy» ijodida Rumiy tili va bayon uslubini oydinlashtirib, asarning g'oya va mazmunini keng miqyosda tahlil qilgan. Jaloliddin Humoiy «Mavlaviynoma» asarida Rumiyning falsafiy, diniy va tasavvufiy qarashlarini tahlil qilgan va shu yo'l bilan she'rlarning tasavvufiy mohiyatini ochib bera olgan. Ibrohim Xudoyor «Masnaviyda duo» nomli tadqiqotida duolardan iborat matnlarni tadqiq qilib, Rumiyning ushbu asarida duoni o'z ichiga olgan misralar alohida o'rin tutishini tushuntiradi. Bu kitob Rumiy asarlarida namozning muhim o'rnini belgilab bergan.

O'zbekistonda «Masnaviyi ma'naviy» asari juda mashhur bo'libgina qolmay, balki uning hikoyalariga xos xususiyatlarni tadqiq va tahlil qilishda ham munosib ishlar amalga oshirilgan. «Masnaviy»ning oltita qissasini nasriy shaklda yozib, Rumiyning tasavvufiy-falsafiy g'oyalarini tahlil qilgan shaxslardan biri, tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov ishlarini rumiyshunoslik borasida qilingan arzigulik ishlardan biri desak mubolag'a bo'lmaydi (Komilov N., 2007:35-48). Bundan oldinroq, 1999-yili shoir Asqar Mahkam tomonidan nashr etilgan «Jaloliddin Rumiy «Ma'naviy masnaviy» kulliyoti ham tarjima sharh va tahlildan iborat bo'lgan e'tiborga loyiq kitoblardan biri hisoblanadi (Asqar Mahkam, 1999:367).

Sharqshunos olim Ahmadqul Quronbekov o'zining «Ma'naviy masnaviyda tasavvuf timsollari» nomli asarida ishq, aql, inson, qalb va qalb timsollarini «Masnaviy» matni asosida tahlil qilib, aniq misollar bilan izohlab berdi. Bu asar Rumiyning «Masnaviy»sida qo'llangan timsollar bilan ko'proq tanishish uchun zamin yaratadi.

«Masnaviy»ning mohiyatini tushuntirishga qaratilgan ko'plab tafsirli asarlar yaratilgan. Ammo, shuni ta'kidlash joizki, ba'zi «Masnaviy» misralarining ilk ta'rifi Mavlono Jaloliddin Balxiyning «Fihi mo fih» nomli nasriy asarida uchraydi. Muallifning «Masnaviy»dan quyidagi baytni chuqur tasavvufiy tahlilga solgani o'sha davrda ham bu asar baytlari talqiniga ehtiyoj borligidan dalolat beradi:

Annotatsiya. XI–XIII asrlarda fors adabiyotida tasavvuf mavzusi markaziy o‘rinni egallagan bo‘lib, bu yo‘nalishning eng mashhur vakili Mavlono Jaloliddin Rumi (1207–1273) va uning «Masnaviy ma‘naviy» asari hisoblanadi. Asar asrlar davomida ilm ahli orasida mashhur bo‘lib kelgan va hozirga qadar ahamiyatini yo‘qotmagan. Mazkur maqolada «Masnaviy»ning ilmiy va tasavvufiy xususiyatlari, shuningdek, Rumi ijodining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi.

Nikolson, Furuzonfar, Zarinkub kabi mashhur olimlarning bu asar ustida olib borgan tadqiqotlari keltirilib, Rumi ijodining falsafiy, diniy, va tasavvufiy qarashlariga oid tahliliy ishlari o‘rganilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda Rumi asarlari va uning ta‘siriga oid tadqiqotlar hamda tarjima ishlari Najmiddin Komilov, Asqar Mahkam, Ahmadqol Quronbekov va boshqa sharqshunos olimlar tomonidan amalga oshirilgani ta‘kidlanadi. Rumi ijodida erkak va ayol tushunchasining ruhiy jihatdan tengligi va sevgi orqali birlikka erishish masalalari keng yoritilgan.

Maqolada «Masnaviy»ning ayol mavzusiga bo‘lgan yondashuvi, inson ruhi va uning xudoga yaqinlashish jarayonidagi roli, shuningdek, sevgi va birlik haqidagi tasavvufiy qarashlar chuqur tahlil qilinadi. Rumi dunyoviy sevgini ilohiy muhabbatning boshlang‘ich nuqtasi sifatida talqin etib, inson hayotining ma‘no va mohiyatini sevgida ko‘rgan. Natijada, Rumi asarlari inson ma‘naviyatining rivoji va hayotning mazmunini anglashda alohida o‘rin egallaydi.

Kalit so‘zlar: Mavlaviy, Masnaviy Ma‘naviy, she‘rlar, asarlar, tasavvuf, tasavvuf, adabiyot, forsha, tadqiqot, ayol.

Abstract. During the 11th–13th centuries, the theme of Sufism held a central place in Persian literature, with its most renowned representative being Mawlana Jalaluddin Rumi (1207–1273) and his work Masnavi Ma‘navi. This masterpiece has been highly esteemed among scholars for centuries and continues to retain its significance today. This article analyzes the scholarly and mystical features of Masnavi as well as the unique aspects of Rumi's creative output.

The research conducted on this work by prominent scholars such as Nicholson, Foruzanfar, and Zarinkoob is discussed, along with their analytical studies on the philosophical, religious, and mystical perspectives within Rumi's work. Additionally, it is noted that research and translations of Rumi's works in Uzbekistan, including those addressing his influence, have been carried out by Eastern studies scholars such as Najmiddin Komilov, Asqar Mahkam, and Ahmadqol Quronbekov.

Rumi's writings widely explore the spiritual equality of men and women and the concept of achieving unity through love. The article provides an in-depth analysis of Masnavi's approach to the subject of women, the role of the human soul in the process of drawing closer to God, as well as Sufi perspectives on love and unity. Rumi interpreted worldly love as the starting point for divine love and considered love the essence and meaning of human life. As a result, Rumi's works hold a special place in fostering spiritual growth and understanding the meaning of life.

Keywords: Mawlavi, Masnavi Manavi, poetry, works, mysticism, mysticism, literature, Persian language, research, woman.

Аннотация. В XI–XIII веках тема суфизма занимала центральное место в персидской литературе, а самым известным представителем этого направления был Мавлана Джалаладдин Руми (1207–1273) и его произведение Маснави-и Ма‘нави. Это произведение на протяжении веков пользовалось широкой популярностью среди ученых и до сих пор сохраняет свою значимость. В данной статье анализируются научные и мистические особенности Маснави, а также уникальные аспекты творчества Руми.

Приводятся исследования таких известных ученых, как Николсон, Форузанфар и Зарринкуб, посвященные данному произведению, а также их аналитические работы о философских, религиозных и мистических взглядах Руми. Кроме того, отмечается, что в Узбекистане исследования и переводы работ Руми, включая изучение его влияния, были выполнены востоковедами, такими как Наджмиддин Комилов, Аскар Махкам и Ахмадкул Куронбеков.

В творчестве Руми широко освещается духовное равенство мужчины и женщины, а также вопросы достижения единства через любовь. В статье проводится глубокий анализ подхода Маснави к теме женщины, роли человеческой души в процессе приближения к Богу, а также суфийских взглядов на любовь и единство. Руми рассматривал земную любовь как отправную точку для божественной любви и видел в любви смысл и сущность человеческой жизни. В результате произведения Руми занимают особое место в развитии духовности человека и осознании смысла жизни.

Ключевые слова: Мавлави, Маснави Манави, стихи, произведения, мистика, мистика, литература, персидский язык, исследования, женщина.

ای برادر تو همان اندیشه ای
مایقی تو استخوان و ریشه ای

Ma'nosi: Ey birodar, sen faqat fikrsan, qolganlari suyak va tomir.

Kamoliddin Xorazmiyning «Javohir al-asror va zavohir al-anvor», Ya'qub Charxiyning «Naynoma yoki risolai nay», Abdurrahmon Jomiyning «Naynoma»si, Xoja Ayyubning «Asror al-g'uyub» ta'rif, Bahr al-ulumning «Masnaviy»ning tasavvufiy talqini, Mulla Hodi Sabzavoriyning «Tafsir al-Masnaviy», Odina Muhammad Xorazmiyning «Muftoh al-asror» kabi asarlari «Masnaviy»ga yozilgan eski sharhlardir (Jaloliddin Rumiy, 1384:2-277).

Q.Saydaliyev o'z tadqiqotida «Masnaviy» qissalari asosida inson obrazini qo'llagan va «Masnaviy» mulohazalari asosida «Masnaviy»da qamish (nay) komil inson timsoli ekanini tasdiqlagan. R.Jumayev dissertasiyasida «Masnaviy» va «Lison ut-tayr»dagi umumiy hikoyalarni qiyosiy o'rganib chiqqan. Bu tadqiqotda muallif Navoiy hikoyalarni talqin qilishda Mavlaviy uslublaridan ham foydalanganini ta'kidlab o'tgan.

O'zbekistonda Rumiy ijodi haqida ko'plab risolalar, maqolalar yozilgan. Uning falsafiy-tasavvufiy fikrlari, she'riy mahorati o'zbekistonlik bir qancha olim va tadqiqotchilar, jumladan, yuqorida nomlari zikr etilgan Najmiddin Komilov, Asqar Mahkam hamda Rashid Jumayev, Ergash Ochilov, Qahramon To'xsenov, Xusrav Hamidov va boshqalarni sanab o'tish mumkin. Xusrav Hamidov doktorlik dissertatsiyasining Masnaviy manbalari, mavzusi va mazmuni haqida o'z dalillarini keltiradi. Tadqiqotchi ushbu tadqiqotida ba'zi «Masnaviy» qissalarining asosiy manbalarini nisbatan eskeroq manbalardan topib, Rumiyning adabiy mahoratini bilish, qissalar mazmunini anglash va tuzilishini tushunishga yordam beruvchi quyidagi xulosalarni qiladi, ya'ni Xusrav Hamidov «Masnaviy» qissalarini tuzilish nuqtai nazaridan uch guruhga ajratgan: alohida qissalar, oyat va hadislar mazmuniga asoslangan hikmatli so'zli qissalar va aralash qissalar, ya'ni hikoya ichida hikoya qissalar. Mazkur tadqiqotida «Masnaviy»da latifalardan foydalanishning besh tamoyilini tilga olgan bu Rumiyning hikoyachilik mahoratidan dalolat beradi. Bunga ko'ra Xusrav Hamidov Rumiyning ba'zi hikoyalarni Attor hikoyalariga o'xshab sharhlaganini aniqlaydi va bunga hech kim ahamiyat bermaganini ma'lum qiladi hamda Rumiy hikoyalarni «Mantiq at-tayr» hikoyalari bilan qiyosiy tahlil o'stiga olgan.

Tadqiqotchi xulosasiga ko'ra, uning tasnifi masnaviy hikoya va manbalarini o'rganishda yordam beradi.

MUHOKAMA

Rumiy ijodiy o'ziga xosligi bilan ajralib turadi, shakl jihatdan uning baytlari o'sha zamon an'anaviy talablaridan siljiganini, bayonda ichki ohangga ko'proq e'tibor qaratganini hamda turli ijtimoiy mavzularda yondashganini ko'rish mumkin.

Insonning fikr va g'oyalari zamon bilan chambarchas bog'liq bo'lib, yashayotgan ijtimoiy sharoitda shakllanadi, buyuklar ham bu qoidadan mustasno emas. Ular ham, o'z davrining farzandlari bo'lib, o'z jamiyati darajasidan yuqori bo'lsalar ham, qarashlari boshqalarga qaraganda xolis bo'lsa-da, ularning ham ijodlarida o'z davrining rangi va hidi ufurib turadi. Insonning fikr-mulohazalari zamonasining fikr va urf-odatlar bilan bog'liq, yashayotgan turli ijtimoiy muammolar fikriga ta'sir qiladi, buni biz Rumiy asarlaridagi ko'plab misollarda ham ko'rishimiz mumkin.

Rumiy fikricha, ruh erkak va ayolga ajramaydi, erkak va ayol ruhning asoratidir. U ruhni erkak va ayol tushunchasidan ustun deb biladi:

لیک از تانیث جان را پاک نیست
روح را با مرد و زن اشراک نیست
از مونث وز مذکر برتر است
این نه آن جان است کز خشک و تر است
این نه آن جان است کافزاید ز نان

Rumiy. Masnaviy) چنان گاهی چنين گاهی چنان
(daftari avval 97/45)

(Jonning muannasligi kamchilik emas

Ruh erkak va ayol bilan mushtarak emas.

U ayol va erkakdan ustun bo'lgay

Bu jon ho'l va quruqdan bo'lmagay

Bu jon non bilan ko'paymaydi

Goh undoq, goh bundoq bo'lmaydi)

Rumiy she'rlaridagi ayol, bir tomondan, ilohiy ishq, jon, ruh, yer, tinchlik va o'sish timsoli bo'lsa, ikkinchi tomondan, tana va nafs ramzidir. Albatta, bunday turli ramziylilik Rumiy davridagi odamlarning tarixiy madaniyatidan, ayollarga munosabatining ikki xilligidan kelib chiqqan bo'lishi mumkin.

Mavlaviy ijodining asl mohiyati inson va uning o'zligini anglashiga, inson va Xudo, din va inson, bashar tafakkuri va uning mohiyati, ma'nosini tushunishga qaratilgan irfoniy hikoya va baytlardan iborat bo'lib, ayol mavzusi uning ijodida xos pardalarda jarang solganini ko'ra olamiz. Ayolga

munosabatda ikki xil yondashuvni mushohada qilish mumkin. Mavlono tushunchasiga ko'ra tavhidga yetishish ishq orqali bo'lsa, ishqni anglash insonlar (ota-ona va farzand, erkak va ayol, insonni insonga) orasidagi his tuyg'ular natijasi asosida vujudga keladi, masnaviyni boshidayoq deydi:

کز نیستان تا مرا ببریده‌اند
در نفیرم مرد و زن نالیده‌اند

«Kim nayistondan meni to kesdilar,

Hasratimdan er-ayol dod etdilar» (Asqar Mahkam, 1999:367) shoir erkak va ayolni birga ishlatgan, ayro ishlatmagan, zotan ruhiyat va ma'naviyatda erkak va ayol o'rtasida bir-biridan ustunlik yo'q, shunga ko'ra bu borada erkak va ayol bir biridan kam yoki ortiq emas, ya'ni ruhiyat mutlaq tushuncha. Mavlaviyning so'zlariga ko'ra, inson ruhi kognitiv va epistemik jihatdan jinsga ega emas. Mavlaviy dunyoviy sevgining ilohiy ishq manbaidan deb hisoblaydi va birinchisi ikkinchisiga ko'prik va yo aloqa vositasi sifatida birlikga yetkazadigan yo'l deb biladi.

Tasavvuf ahli va oriflar ishq va haqiqat sirlaridan, butun borliq uning ishqidan boshlanadi, deb hisoblaydilar.

NATIJA

Binobarin, Jaloliddin Mavlono Rumi asarlarining asosiy mavzusi ishqdir. U sevgi-ishqni hayot eleksiri, hayot manbai va yashashning yagona omili va sababi, deb biladi. Faqat muhabbatgina o'tkinchi hayotga ma'no va mazmun bag'ishlaydi, unga rang-baranglik ato etadi, o'tkinchi va foni dunyoda insonga mangulik ta'mini beradi. Sevgisiz, mehsiz odamning qalbi butun emas va ayni paytda noqis bo'lib, bunday odam hayotida nimadir etishmayotganini bilvosita his qilib yashaydi va o'zini baxtsiz his qiladi. Mavlaviy ta'kidlaganimizdek, dunyoviy ishqni ilohiy sevgining manbai, deb hisoblaydi va ikkalasining aloqasini birlik, deb biladi.

Tasavvuf ahli ishq va haqiqat Uning haqiqatidan, sirlaridan, butun borliq Uning sevgisidan boshlanadi, deb hisoblashar ekan, sevgi borliqning mohiyati va ijodning boshlanishi, erkak va ayol o'rtasidagi muhabbat tuyg'usi esa Xudoning cheksiz muhabbatidan bir tomchidir:

ای تو پناه همه روز می‌کن
باز سپردم به تو من خویشتن

(Ey sinovli kunlardan asraguvchi

Yana senga topshirdim o'zimni

قلزم مهری که کنارش نیست

Kulliyoti Shams, Vol.) الفت مردست و زن

(4, 293-294

Sen cheksiz mehr-muhabbat ummonidirsan,

Erkak va ayol o'rtasidagi muhabbat bu ummondan bir tomchidir.

Tasavvufiy manbalarda ko'p qo'llaniladigan qudsiy hadis mazmuniga ko'ra, Alloh dashtlab maxfiy bir xazina bo'lib, oshkor bo'lmoqni istaganidan, barcha maxluqotlarni o'z ishqining ko'zgusi sifatida yaratdi. Xususan bani Odamda bu o'z zuhurini ko'rsatgan, ayol va erkakning sevgisi, usha mutlaq ilohiy ishqning jilvasidir. (15) «المجائر قطرة الحقيقة» ya'ni inson bu dunyoning muhabbatidan Xudo muhabbatigacha o'tadigan mutlaq ilohiy ishqning bir bosqichidir. Bu darajaga erishish uchun, oshiqlardan o'zlaridan kechib, «men» va «sen» degan ikkilik va kontrastlikdan xoli bo'lmoqni talab qilinadi. Bir birlari bilan bir tan-u bir jon bo'lganda, Jononga g'arq bo'ladilar, shunda fanoga yo'l tutadilar. Mavlono Rumi oriflar tili bilan quyidagi matlbni bayon qilganda kinoya va tashbejni qorishiq holda qo'llab, Haqqa qaratib xitob qiladi:

ای رهیده جان تو از ما و من

ای لطیفه ی روح اندر مرد و زن

Ey sening joning «sen va men»likdan qutulgan

Sen ayol va erkakda latif va nozik bir ruhsan

مرد و زن چون یک شود آن یک تویی

چون که یکها محو شد آنک تویی

Ayol va erkak birlashsa, o'sha birlashuv sensan

Ular birlashib fanoga yetganda, o'shanda ham sensan.

تا من و توها همه یک جان شوند

عاقبت مستغرق جانان شوند

To menu senlar bir jon bo'laylik

Oqibatda Jononga g'arq bo'laylik

اینهمه هست و بیا ای امر گن

ای منزله از بیا و از سخن

Mana hammasi bor kel amr qilgin

Ey Pok, kelgin va so'z aytgin

ز سایه تو جهان پر ز لیلی و مجنون

هزار ویسه بسازد، هزارگون رامین

Jahon Layliy-u Majnunga to'la soyangdan

Sening

Yaratding minglab Vayslari-yu minglab Rominlari yaralmish.

XULOSA

Rumiy ijodi insonni aynan go'zallikka, ma'rifatga oshno etar ekan, uni o'rganish butun jahon uzra tarqalgan. O'zbekistonda ham uning shaydolari kundan kunga ortib borayotganini mushohada qilish mumkin. Zero «Masnaviy» va g'azallarida aytganimizdek, ayol zotiga ehtirom baland pardalarda kuylangan. Uning talqinida, inson qanchalik ayolni e'zozlasa, shunchalik sharaf va martabasi ulug'lanadi. Robia Adaviya kabi orifa ayollar, Bibi Maryam kabi mushfiq va pokdomon onalar, Zulayxo kabi muhabbat tufayli Haqni tanigan go'zallar uning talqinida hamisha e'zoz va ehtiromga loyiq zotlar bo'lgan. Shuningdek, Mavlononing ikkinchi qarashi xiyonatkor, o'z nafsining quliga aylangan, erlariga isyon qiluvchi ayollarni juda qattiq hajv qiladi. Ayrim hollarda, u o'z davri odamlarining tasavvurlarini ham aks ettirgan hikoyalarni uchratish mumkin, bu haqida alohida tahlil qilinsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Umumiy olganda Rumiya ko'ra, ayollikning asosiy jihati bu hayo hisoblanadi. Hayoli ayol vafo, sadoqat va go'zallik timsolidir. Ayolning tashqi chiroyimas, balki ichki olamining go'zalligi unga maftunkorlik bag'ishlaydi. Kamtar ayol sadoqat, fidoyilik va go'zallik ramzi. Ayolning tashqi go'zalligi emas, balki ichki dunyosining go'zalligi unga joziba va ayollik baxsh etadi. Bularning barchasi – ilohiy muhabbatning bir tomchisidir. Ma'lum bo'ladiki, ayolga muhabbat qo'yish – ilohiy muhabbatning bir tomchisi, nishonasi ekan.

Aytish joizki, Mavlono oilasidagi ayollarga nisbatan muomalasi ham hurmat va mehribonlik bilan edi. Rumiy oilasida ayollar alohida ahamiyatga ega bo'lib, har doim erkaklar bilan teng huquqli hisoblangan. Aflokiy Rumiyning birinchi xotini Gavhar Xotun Samarqandiya haqida hech narsa aytmagan, lekin uning ikkinchi xotini Qora Xotun Qunaviya haqida ko'p narsalarni eslatib o'tgan, holbuki, Rumiy oilasidagi eng muhim ayol uning Fotima Xotun ismli kelini edi, u ham Salohiddin Zarkubning qizi va Jaloliddin Amir Orifning onasi edi, bularning barchasi mulohaza, tafakkur va alohida tadqiqni talab qiladi.

MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Nicholson R.A. (1925-1937). The Mathnawi of Jalaluddin Rumi, ed. trad. and commentaries, 8 vol. London.
2. <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiya-adabiyot/tasavvuf/jaloliddin-rumiy-masnaviy-daftari-yakum-1.html>

3. Zarinkub, A. (1368). Bahr dar kuza. Tehron: Ilmiy.
4. Zarinkub, A. (1368). Sar ney (Jildlar 1 va 2). Tehron: Ilmiy.
5. Humoyiy, J. (1384). Tafsiri Masnaviyi Ma'naviy: Doston Qal'ayi Zat as-Sur yoki Dez Hushraboyo. Tehron: Tehron Universiteti.
6. Xudoyor, I. (1387). Duo dar Masnaviy. Tehron: Ilm Nashriyoti. Куронбеков А.
7. «Маснавийи маънавий»да тасаввуф тимсоллари. Тошкент: ТДШИ, 2011; ўша муаллиф: Мавлоно Жалолиддин Румийнинг авлодларга мангу маънавий мероси // Жалолиддин Румийнинг мангу маънавий мероси. Илмий мақолалар тўплами. Тошкент: ТДШИ, 2007.
8. Mavlono Jaloliddin Muhammad Balxiy Rumiy. 1384). Masnaviyi Ma'naviy, 2/277.
9. Xorazmiy, K. H. ibn H. (1384). Jawohir al-asror va Zavohir al-anvor (4 jild, Muhammad Jovod Shariat tomonidan tahrirlangan). Tehron: Asotir.
10. Charkhiy, M. Y., & Jomiy, M. (1336). Risolayi Noyi'aa va Risolayi Ney (Xalilulloh Xaliliy tomonidan muqaddima, izoh va sharh bilan). Qobul.
11. Ayub, X. (1377). Asror al-ghuyub: Sharhi Masnaviyi Ma'naviy. Tehron: Asotir.
12. Muhammad ibn Muhammad, Bahr al-Ulum, (1383). Tafsiri Irfoniy Masnaviyi Ma'naviy. Tehron: Eron Yoron.
13. Sabzavariy, M. H. (1374). Sharhi Masnaviy. Tehron: Madaniyat va Islomiy Irshod Vazirligi.
14. Комилов Н. (2007). «Маснавий» ҳикоятларининг таржима ва талқини // Жалолиддин Румийнинг мангу маънавий мероси. Илмий мақолалар тўплами. Масъул муҳаррир Куронбеков А. Тошкент: ТДШИ.
15. Mavlono Jaloliddin Muhammad Balxiy Rumiy. Kulliyot Shams (4-jild). Tehron, 293–294.
16. Радий Фиш. (2005). Жалолиддин Румий. Тошкент: Гафур Гулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи.
17. Мухаммад Истеъломий. (2001). Илоҳий ишқ куйчиси. «Маснавий»га муқаддима. (Мавлоно Жалолиддин Мухаммад Балхий). Форс тилидан Жаъфар Мухаммад таржимаси. Техрон.
18. Asqar Mahkam. (1999). Jaloloddin Rumiy «Ma'naviy masnaviy». Toshkent. Sharq nashri.

REFERENCES

1. Nicholson, R.A. (1925–1937). The Mathnawi of Jalaluddin Rumi, ed., trans., and commentaries, 8 vols. London.
2. Jaloliddin Rumiy: Masnaviy – Daftari Yakum (1). Retrieved from <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiya-adabiyot/tasavvuf/jaloliddin-rumiy-masnaviy-daftari-yakum-1.html>.

3. Zarrinkub, Abd al-Husayn. (1368). Bahr dar Kouze. Tehran: Elmi.
4. Zarrinkub, Abd al-Husayn. (1368). Sar-e Ney (Vols. 1–2). Tehran: Elmi.
5. Humayi, Jalal al-Din. (1384). Tafsir-e Mathnawi Ma'navi. Dastan-e Qal'e Zat al-Sour ya Ke Dez-e Housharba. Tehran: Daneshgah Tehran.
6. Khodayar, Ibrahim. (1387). Do'a dar Mathnawi. Tehran: Entesharat Elmi.
7. Qur'onbekov, Ahmadqol. (2011). «Masnaviy-i Ma'navi»da tasavvuf timsollari. Tashkent: TDSHI.
8. Mawlana Jalal al-Din Muhammad Balkhi Rumi. (1384). Mathnawi Ma'navi.
9. Kamal al-Din Husayn ibn Hasan Khwarazmi. (1384). Jawahir al-Asrar wa Zawahir al-Anwar (4 vols.). Edited by Dr. Muhammad Jawad Shariat. Tehran: Asatir.
10. Mawlana Ya'qub Charkhi. (1336). Risalaye nay; Mawlana Jami. Risalaye nay. Introduction, notes, and commentary by Khalil Allah Khalili. Kabul.
11. Khwaja Ayub. (1377). Asrar al-Ghuyub: Sharh-e Mathnawi Ma'navi. Tehran: Asatir.
12. Muhammad ibn Muhammad Bahr al-'Uloom. (1383). Tafsir-e 'Irfani Mathnawi Ma'navi. Tehran: Iran Yaran.
13. Mulla Hadi Sabzevari. (1374). Sharh-e Mathnawi. Tehran: Vezarat-e Farhang va Ershad-e Eslami.
14. Komilov, Najmiddin. (2007). «Masnaviy» hikoyatlarining tarjima va talqini. In Jaloliddin Rumi Mangu Ma'naviy Merosi, ed. Qur'onbekov A., Tashkent: TDSHI.
15. Kulyat-e Shams (Vol. 4). Tehran, pp. 293–294.
16. Fish, Radiy. (2005). Jaloliddin Rumi. Tashkent: G'afur G'ulom Nomidagi Nashriyot Matbaa Ijodiy Uyi.
17. Istilami, Muhammad. (2001). Ilahi Ishq Kuychisi: «Masnaviy»ga Muqaddima (Mawlana Jalal al-Din Muhammad Balkhi). Trans. Ja'far Muhammad. Tehran.
18. Mahkam, Asqar. (1999). Jaloliddin Rumi «Ma'naviy Masnaviy». Tashkent: Sharq Nashriyoti.

